

TALABALARDA LIDERLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda liderlik ko'nikmalarini shakllantirishda qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar yoritilgan. Liderlik nafaqat ijtimoiy hayotda, balki ta'lim jarayonining o'zida ham muvaffaqiyat omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotda faol va interaktiv ta'lim metodlari, loyiha asosida o'qitish (PBL), treninglar, hamkorlikda o'qitish uslublari va ularning talaba shaxsiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, talabalarning liderlik ko'nikmalariga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Liderlik, shaxsiy rivojlanish, ta'lim jarayoni, pedagogik yondashuv, loyiha asosida o'qitish, trening, hamkorlikda o'qitish, motivatsiya.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobat sharoitida talabalarning nafaqat bilim darajasi, balki shaxsiy sifatлари, ayniqsa, liderlik ko'nikmalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Liderlik bu – tashabbus ko'rsatish, jamoaga ta'sir o'tkaza olish, o'zini boshqara bilish va boshqalarni boshqarish san'atidir. Shu sababli zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarda liderlik kompetensiyalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda an'anaviy yondashuvlar o'rnini interaktiv va innovatsion metodlar egallamoqda.

Talabalarda liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim muassasalarining ustuvor vazifalaridan biridir. Bunday ko'nikmalarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, quyidagi yondashuvlar keng qo'llanmoqda:

1. Faol ta'lim metodlari: “Debatlar”, “Rolli o'yinlar”, “Muammo asosida o'qitish” kabi metodlar orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda qilish, boshqalarni tinglash va qaror qabul qilishni o'rganadilar. Bu esa liderlik fazilatlarining shakllanishiga olib keladi.

2. Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning - PBL)⁷⁵: Talabalar jamoada ishlash, masalalarni hal qilish, vaqtni boshqarish kabi ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Loyiha davomida ular liderlik rolini o'z zimmasiga olishga harakat qiladilar.

PBLning asosiy tamoyillari

Tamoyil	Izoh
Muammo markazida bo'lish	Loyihada haqiqiy hayotdagi ijtimoiy, iqtisodiy yoki ekologik muammo yotadi.
Talaba faolligi	Talaba mustaqil izlanadi, material to'playdi, fikr yuritadi.
Hamkorlik	Guruhda ishlash, ro'l taqsimoti, jamoaviy qaror qabul qilish.
Yakuniy	Loyihaning aniq va ko'rinadigan natijasi bo'ladi (prezentatsiya,

⁷⁵ Project-Based Learning (PBL) — bu o'quvchilarning real hayotdagi muammolarni hal etish orqali bilim olishi, ko'nikmalar hosil qilishi va o'z salohiyatini namoyish etishga asoslangan faol, talaba markazli o'qitish metodikasi.

Tamoyil	Izoh
mahsulot	videorolik, hisobot, amaliy echim va h.k.).
O'zaro baholash va tahlil	Loyihaning samaradorligi ustida fikr yuritish, takomillashtirish.

3. Trening va seminarlar: Maxsus tashkil etilgan liderlik treninglari orqali talabalar nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarni ham egallaydilar. Treninglarda stressga chidamlilik, kommunikatsiya, ijtimoiy faollik, muammolarni hal qilish kabi kompetensiyalar shakllantiriladi.

4. Hamkorlikda o'qitish (Collaborative learning): Guruhlar bilan ishlash orqali talabalar o'zaro fikr almashish, nizolarni hal qilish, tashabbus ko'rsatish, jamoaviy maqsad sari harakat qilish kabi liderlikka xos fazilatlarni rivojlantiradilar.

5. Raqamli texnologiyalardan foydalanish: Onlayn platformalarda liderlik kurslari, vebinarlar, testlar va interaktiv mashqlar yordamida talabalar o'z shaxsiy salohiyatlarini aniqlash va rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar.

6. Emosional intellektga asoslangan yondashuvlar: Liderlik nafaqat tashqi ta'sir doirasida, balki ichki hissiyotni boshqarish, empatiya, o'ziga ishonch kabi psixologik jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Talabalarga ushbu sohalar bo'yicha individual psixologik maslahatlar, mashg'ulotlar tavsiya etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy manbalarda liderlik turlicha talqin qilinadi. M. Fullan (2014) liderlikni "ijtimoiy ta'sir orqali o'zgarishga yo'naltirish" deb tavsiflaydi. V.S. Avanesov (2011) esa liderlikni shaxsiy psixologik jihatlarni bilan bog'laydi: motivatsiya, o'ziga ishonch, kommunikativlik. O'zbekiston pedagogikasida esa, masalan, X. To'xtasinova (2020), liderlik kompetensiyasini ta'limda yondashuv sifatida qaraydi. Shuningdek, J. Dewey, K. Rogers, A. Maslow kabi klassik pedagoglarning ishlanmalarida faol ta'lim, o'zini ifoda etish, erkin fikrlash asosida shaxsni rivojlantirish tamoyillari liderlikni shakllantirishga bevosita bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Nazariy tahlil – liderlik va pedagogik yondashuvlarga oid manbalarni o'rganish;
- So'rovnoma – 1-4 kurs talabalari orasida liderlik ko'nikmalari bo'yicha so'rov o'tkazildi;
- Eksperiment – trening asosida mashg'ulotlar tashkil etildi (16 soatlik modul);
- Tahlil va solishtirish – dastlabki va yakuniy natijalar o'rtasidagi farq aniqlanib, samaradorlik baholandi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqotda qatnashgan 120 nafar talaba orasida olib borilgan eksperiment quyidagi natijalarni berdi:

Ko'rsatkich	Eksperiment oldi (%)	Eksperiment so'nggi (%)
O'zini ifoda eta olish	52	84
Jamoa bilan ishlash	60	87
Mas'uliyatni o'z	46	79

Ko'rsatkich	Eksperiment oldi (%)	Eksperiment so'nggi (%)
zimmasiga olish		
Qaror qabul qilish	41	73

Misol: Pedagogika yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun loyiha.

Loyiha mavzusi: "Akademik guruhda ijobiy psixologik muhit yaratish bo'yicha interaktiv tadbir ishlab chiqish"

Bosqichlar:

1. Muammoni aniqlash (intervyular, so'rovnoma)
2. G'oya ishlab chiqish (tahlil)
3. Guruh ichida rollarni taqsimlash (yetakchi, kotib, dizayner, nutqchi)
4. Loyihani ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish
5. Natijalarni taqdim etish (slaydlar, hisobot)
6. Baholash va tahlil

Natijalar shuni ko'rsatadiki, trening asosida o'qitish, PBL va rolli o'yinlar talabalarda liderlik kompetensiyasini samarali rivojlantirgan. Muhokama jarayonida talabalar o'zlarida ijobiy o'zgarishlar bo'lganini bildirganlar ularda tashabbus, fikr bildirish, jamoada faol ishtirok etish qobiliyatlari ortgan.

PBL – bu oddiy o'rgatish emas, balki shaxsni rivojlantirish vositasi. Ayniqsa, liderlik, ijtimoiy faollik, mas'uliyat va tashabbuskorlik kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishda bu metod kuchli pedagogik vositadir. Oliy ta'lim tizimida PBL asosidagi modul, loyiha va amaliy mashg'ulotlar sonini ko'paytirish talabalarning nafaqat bilimini, balki hayotiy kompetensiyalarini oshiradi.

Xulosa. Talabalarda liderlik ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Faol ta'lim metodlari, jumladan, loyiha asosidagi mashg'ulotlar, treninglar, bahs-munozaralar va rolli o'yinlar talabalarning shaxsiy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'lim muassasalari ushbu yondashuvlarni muntazam qo'llashi va metodik qo'llanmalar ishlab chiqishi lozim.

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning shaxsiy va kasbiy jihatdan to'laqonli shakllanishi, ayniqsa, liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy bilimga asoslangan ta'lim usullaridan farqli o'laroq, zamonaviy pedagogik yondashuvlar – xususan, loyiha asosida o'qitish (PBL), muammo asosida o'qitish (Problem-Based Learning), hamkorlikda ta'lim va trening mashg'ulotlari talabalarni mustaqil qaror qabul qilish, tashabbus ko'rsatish, ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi liderlik fazilatlarini boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fullan M. *The Principal: Three Keys to Maximizing Impact*. – Jossey-Bass, 2014.
2. To'xtasinova X. *Zamonaviy ta'lim jarayonida liderlik kompetensiyasini shakllantirish*. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.

3. Аванесов В.С. Педагогика и психология: современные подходы. – Москва, 2011.
4. Dewey J. *Democracy and Education*. – New York: Macmillan, 1916.
5. Maslow A. *Motivation and Personality*. – Harper & Row, 1954.
6. Халилова Н.А. *Oliy ta'limda talabalar faolligini oshirishning psixologik omillari*. – Toshkent, 2019.